



MAXTUMQULI HAYOTI VA SHE'RIYATI

Aliyeva Dilshoda

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi

Normamatova Husnora Shomamat qizi

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Soatova Mohichehra Ahmadovna

TerDPI O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkman klassik adabiyotining asoschisi Maxtumquli hayoti va she'riyati haqida ma'lumotlar berilgan. Maxtumquli she'rlari turkona ruhiyatda yozilganligi, she'riy san'atlar hamda adabiy vositalarni o'zida mujassam etgani bilan ahamiyatlidir.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни и творчестве основоположника туркменской классической литературы Махтумкули. Стихи Махтумкули примечательны тем, что написаны в тюркском духе и включают в себя поэтические приемы и литературные средства.

Abstract: This article provides information about the life and poetry of Makhtumkuli, the founder of Turkmen classical literature. Makhtumkuli's poems are significant for being written in a Turkic spirit and incorporating poetic arts and literary devices.

Kalit so'zlar: Turkiy xalqlar adabiyoti, Maxtumquli ijodi, talmeh san'ati, Maxtumquli she'rlarining g'oyaviy tasnifi, xalqona ruh, turkman tili rivoji, Maxtumquli ijodida xalq maqollari va hikmatli so'zlarning o'rni.

Ключевые слова: Литература тюркских народов, творчество Махтумкули, искусство талме, идейная классификация поэм Махтумкули,



народный дух, развитие туркменского языка, роль народных пословиц и мудрых изречений в творчестве Махтумкули.

Keywords: Literature of the Turkic peoples, Makhtumkuli's work, art of talmeh, ideological classification of Makhtumkuli's poems, folk spirit, development of the Turkmen language, the role of folk proverbs and wise sayings in Makhtumkuli's work.

Turkiy xalqlar adabiyotining zabardast vakili, o'zining chuqur mazmunli, xalqona va falsafiy ruhdagi she'rlari bilan nafaqat turkman xalqining, balki butun turkiy xalqlarning ma'naviy merosiga beqiyos hissa qo'shgan olim Maxtumqulidir. Uning ijodi o'z davrining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotini aks ettiradi va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan.

Maxtumquli Turkmanistonning Etrek daryosi bo'yida joylashgan Hajig'ovshan qishlog'ida tug'ilgan. Otasi - o'z davrining taniqli shoiri va ma'rifatparvari bo'lgan. Maxtumquli dastlab otasidan saboq olib, keyinchalik Buxoro, Xiva va Shirvon madrasalarida tahsil olgan. U arab, fors va turkiy tillarni mukammal bilgan, Sharq adabiyotining buyuk mutafakkirlari - Navoiy, Fuzuliy, Hofiz, Sa'diylarning asarlarini chuqur o'rgangan. Shoir umrining katta qismini xalq orasida o'tkazgan. U o'z she'rlarida xalq dardini, orzu-umidlarini, birligi va erkinligi g'oyalarini kuylagan. Maxtumquli umrining so'nggi yillarini Vatanining tinchligi va birligi yo'lida o'tgan hayoti bilan yakunlagan.

Maxtumquli o'z ijodida turkman adabiyotini yangi bosqichga olib chiqqan. U ona tili — turkman tilida yozgan va shu orqali xalq tili, xalq ruhini she'riyatga olib kirgan. Uning asarlarida xalqona ohang, diniy-falsafiy fikr, insonparvarlik va Vatan muhabbati uyg'unlashgan.

Shoir o'z davrida insoniylikka va adolat masalalarini ham ilgari surganligini “Adolat yaxshi” nomli she'ridan bilib olishimiz mumkin:



Aslo odamzodga achchiq so‘z qilmang,

Faqir-u miskinga dalolat yaxshi.

Baxilga uchramang – kular yuz bo‘lmang,

Ishni bitirmoqqa kifoyat yaxshi.

Yetimni ko‘rganda kular yuz bo‘lgil,

Qo‘ldan kelsa, unga taom-tuz bergil,

G‘amginni ko‘rganda shirin so‘z bergil,

Chorasiz qullarga himoyat yaxshi.

Yigit uldir, so‘zga aylasa amal,

Qo‘ldan kelmas ishga etmasa jadal,

Allohning amriga qilmagil badal,

Bekka – saxo, shohga – adolat yaxshi.

G‘ariblik bir darddir – odam o‘ldirmas,

O‘ldirmas, hayotda lekin kuldirmas,

Bo‘riga ajzini it ham bildirmas,

Albatta, dushmanga siyosat yaxshi.



Maxtumquli, shukr, shirin til berdi,

Daraxtlar ko‘karib, samar, gul berdi,

Go‘ro‘g‘li Rayhonga qanday yolbordi? –

“Omonliq” deganga diyonat yaxshi.

Mirzo Kenjabek tarjimasiga mansub ushbu she‘r insoniy fazilatlar: sadoqat, halollik, sabr-toqat, mehr-shafqat g‘oyalari yuksak tarannum etiladi. Ijtimoiy-satirik ruh: u jaholat, adolatsizlik, kibr va manmanlik esa qattiq tanqid ostiga olinadi.

Bundan tashqari Maxtumquli she‘rlarida xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, sodda, ammo chuqur ma’noli iboralar keng qo‘llanadi. U o‘z she‘rlari bilan xalqni birlashishga, ilm va ma‘rifatga, adolat va tinchlikka da‘vat etgan. Shoir she‘rlariga murojaat qilar ekanmiz, bevosita talmeh san’ati namunalariga duch kelamiz.

Topsangda dunyoda mulki Iskandar

Qonunning moli ham bo‘lsa muyassar.

Oxiri bo‘lasan yerga barobar,

Ko‘nglingda manmanlik sotuvchi bo‘lma.

Bu to‘rtlikda Iskardar va Qorun kabi tarixiy shaxslarning keltirilishi talmeh san’atigi yuzaga keltirgan. Misralar orqali shoir Iskardar va Qorun timsolida dunyoning o‘tkinchiligi, mol- dunyo yig‘ishdan hech bir naf yo‘qligini, kibrga berilib manmanlik qilmaslik kerakligini kitobxonga uqtirishga harakat qiladi.

Xulosa. Maxtumquli Firog‘iy turkiy xalqlar adabiy merosida o‘ziga xos o‘rin egallagan ulug‘ shoir va mutafakkirdir. Uning she‘rlari bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, xalqni birlik, ma‘naviyat va insoniylik sari chorlab turadi. Shoirning “Birlik bo‘lmasa, el bo‘lmas” degan hikmatli so‘zi asrlar osha dolzarbligini saqlab qolgan.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxtumquli. Tanlangan asarlar. Toshkent. O'zbekiston KP MK nashriyoti. 1976, 156-bet.
2. Maxtumquli Firog'iy. Saylanma. Toshkent "O'zbekiston" 2008
3. Maxtumquli "Dunyo o'tib boradir" . Yangi asr avlodi. 1990.
4. Quronboyev K. Maxtumquli-ilhom chashmasi. Toshkent. "Tafakkur" nashriyoti, 2011
5. www.ziyouz.com kutubxonasi
6. <https://www.uzbekembasy.in/turkman-adabiyoti/?lang=uz>
7. <https://lex.uz.docs/-6806311>